

KICHIK BIZNESDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING AFZALLIKLARI

Shukurov Najmiddin Azamovich

Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti Iqtisodiyot yoʻnalishi 4-bosqich talabasi

najmiddinshukurov98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka taʼsiri, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdagi oʻrni hamda raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari va mavjud muammolar koʻrib chiqilgan. Tadqiqot natijasida innovatsiyalarni qoʻllash kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: kichik biznes, innovatsiya, innovatsion yondashuv, mahsulot ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, avtomatlashtirish, tadbirkorlik.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ПРОИЗВОДСТВЕ ПРОДУКЦИИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ИХ ПРЕИМУЩЕСТВА

Шукуров Наджмиддин Азамович

Деновского института предпринимательства и педагогики

Студент 4 курса направления «Экономика»

najmiddinshukurov98@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы применения инновационных подходов в процессе производства продукции в субъектах малого бизнеса. Освещается влияние внедрения инноваций на экономическую эффективность, их роль в оптимизации производственных процессов, а также значение цифровых технологий. Кроме того, анализируются приоритетные направления развития инновационной деятельности и существующие проблемы в малом бизнесе. В результате исследования обосновано, что использование инноваций является важным фактором повышения конкурентоспособности малого бизнеса.

Ключевые слова: *малый бизнес, инновации, инновационный подход, производство продукции, цифровые технологии, экономическая эффективность, конкурентоспособность, модернизация, автоматизация, предпринимательство.*

INNOVATIVE APPROACHES IN PRODUCT PRODUCTION IN SMALL BUSINESS AND THEIR ADVANTAGES

Shukurov Najmiddin Azamovich

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

4th-year student of the Economics program

najmiddinshukurov98@gmail.com

Abstract: This article examines the use of innovative approaches in the production processes of small business entities. It highlights the impact of innovation on economic efficiency, its role in optimizing production processes, and the importance of digital technologies. Additionally, the study analyzes key directions for developing innovative activities and identifies existing challenges in small businesses. The research concludes that the application of innovation is a crucial factor in enhancing the competitiveness of small enterprises.

Keywords: *small business, innovation, innovative approach, production process, digital technologies, economic efficiency, competitiveness, modernization, automation, entrepreneurship.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes subyektlari moslashuvchanligi, tezkor qaror qabul qilish imkoniyati hamda bozor talablariga tez javob bera olishi bilan innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni — "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berdi. Mazkur strategiyada iqtisodiyot tarmoqlarini

modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan [1].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi so'nggi yillarda 50 foizdan ortiqni tashkil etmoqda [1]. Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlarining hissasi izchil oshib borayotgan bo'lib, bu innovatsion yondashuvlarning amaliyotga keng joriy etilayotganidan dalolat beradi. Biroq, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash darajasi, ilmiy-texnik salohiyatdan foydalanish samaradorligi hamda innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi hali yetarli darajada emas.

Prezidentning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham innovatsiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilib, "innovatsiyasiz rivojlanish yo'q" tamoyili ilgari surildi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida yangi texnologiyalarni keng qo'llash zarurligini yanada kuchaytirdi [3].

Shu nuqtai nazardan, kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, ularning samaradorligini baholash hamda rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznesda mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlarning mohiyatini ochib berish, ularning afzalliklarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznesda mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalalari iqtisodiyot fanida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Innovatsiya tushunchasi va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ilk bor mashhur iqtisodchi Jozef Shumpeter tomonidan asoslab berilgan. U o'zining 1911-yilda chop etilgan "*The Theory of Economic Development*" asarida innovatsiyani iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi mahsulot yaratish hamda yangi bozorlarni egallashni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ko'rsatadi [4].

Keyinchalik innovatsion jarayonlarning rivojlanishi va ularning iqtisodiyotga ta'siri Piter Druker tomonidan chuqur tahlil qilingan. Uning 1985-yilda nashr etilgan "*Innovation and Entrepreneurship*" asarida innovatsiya tadbirkorlikning muhim vositasi

sifatida qaralib, kichik biznes subyektlari innovatsiyalar orqali raqobat ustunligiga erishishi mumkinligi ta'kidlangan [5].

Innovatsiyalarni boshqarish va ularning ishlab chiqarish jarayonidagi roli Kleyton Kristensen tomonidan o'rganilgan bo'lib, u 1997-yilda chop etilgan *"The Innovator's Dilemma"* asarida disruptiv innovatsiyalar nazariyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, kichik korxonalar aynan innovatsion yondashuvlar orqali yirik kompaniyalar bilan samarali raqobatlashishi mumkin [6].

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarni tizimli rivojlantirish masalalari Maykl Porter tomonidan ham tahlil qilingan. U o'zining 1990-yildagi *"The Competitive Advantage of Nations"* asarida innovatsiyalarni milliy raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ularning hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi [7].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etish masalalari Klaus Shvab tomonidan 2016-yilda chop etilgan *"The Fourth Industrial Revolution"* asarida keng yoritilgan bo'lib, unda sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o'zgartirayotgani qayd etiladi [8].

MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan ham ushbu masala atroflicha o'rganilgan. Xususan, o'zbek iqtisodchisi S.S. G'ulomov o'z ilmiy ishlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish, raqamlashtirish va modernizatsiya jarayonlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan [9].

Shuningdek, B.Yu. Xodiyev va boshqa mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari keng yoritilgan [10].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesda innovatsion yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda bozor raqobatida ustunlikka erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlar mazkur yo'nalishda yanada chuqur amaliy tadqiqotlar olib borish zarurligini ham ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda kichik biznesda mahsulot ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish jarayonlarini o'rganishda umumilmiy va maxsus usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullari orqali innovatsion faoliyatning nazariy asoslari o'rganildi.

Statistik tahlil usuli yordamida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi va ishlab chiqarishdagi ko'rsatkichlari baholandi. Shuningdek, xorijiy tajribani o'rganish orqali innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish yo'llari aniqlandi.

Tadqiqotning axborot bazasini Prezident farmon va qarorlari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

MUHOAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50–55 foiz atrofida shakllanib, mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim drayveriga aylangan. Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayrim yillarda 25–30 foizgacha yetgani kuzatilmoqda.

Mazkur o'sish ko'rsatkichlari, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion yondashuvlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan izohlanadi. Jumladan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ERP), sun'iy intellekt elementlari hamda zamonaviy ishlab chiqarish usullaridan foydalanish kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlarni qo'llayotgan kichik korxonalarda mehnat unumdorligi an'anaviy usullarda faoliyat yuritayotgan subyektlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Xususan, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining tezligi oshib, resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanmoqda. Bu esa o'z navbatida ularning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu jarayonni sekinlashtiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

1-jadval

Kichik biznesda innovatsion yondashuvlarning ta'siri

<i>№</i>	<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Holati (so'nggi yi-llar)</i>	<i>Tahlil natijasi</i>	<i>Ta'siri</i>
1	YAIMdagi ulushi	50–55 %	Barqaror o'sish kuzatilmoqda	Iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri
2	Sanoat ishlab chi-qarishidagi ulushi	25–30 %	Yildan-yilga oshib bormoqda	Ishlab chiqarish hajmi ken-gaymoqda
3	Raqamli texnolo-giyalarni joriy etish darajasi	O'rtacha (o'sish tendensiyasi mavjud)	ERP, AI, avtomat-lashtirish kengaymoqda	Samaradorlik oshmoqda
4	Mehnat unumdorligi	Yuqori (innovatsion korxonalarda)	An'anaviy usullarga nisbatan ustun	Xarajatlar kamayadi
5	Mahsulot sifati	Yaxshilanmoqda	Innovatsiyalar sifatni oshiradi	Raqobatbardoshlik kuchayadi
6	Eksport salohiyati	Oshib bormoqda	Innovatsion mahsulotlar eksportga chiqmoqda	Valyuta tushumi ortadi
7	Moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan-lik	Yetarli emas	Investitsiya muammosi mavjud	Innovatsiya joriy etish sekinlashadi
8	Kadrlar salohiyati	O'rtacha	Malakali mutaxassislar yetishmaydi	Texnologiya o'zlashtirish qiyinlashadi
9	Innovatsion infratu-zilma	Rivojlanish bosqi-chida	Texnoparklar va IT markazlar ko'paymoqda	Rivojlanish uchun baza yaratilmoqda
10	Umumiy samara-dorlik	O'sish tendensiyasida	Innovatsiyalar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda	Barqaror iqtisodiy rivoj-lanish

1-jadval ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi roli so'nggi yillarda barqaror ravishda ortib bormoqda. Xususan, yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 50–55 foiz atrofida shakllanishi ushbu sektorning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Bu holat kichik biznesning nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi muhim omilga aylanganini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes ulushining 25–30 foizgacha yetgani ishlab chiqarish faoliyatining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida innovatsion yondashuvlarning amaliyotga joriy etilayotganligi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (ERP) va sun'iy intellekt elementlarining qo'llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari innovatsion yondashuvlardan foydalanayotgan kichik korxonalarda mehnat unumdorligi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi, resurslardan oqilona foydalanish hamda vaqt tejalishi bilan izohlanadi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, mahsulot tannarxi pasayadi va korxonalarining raqobatbardoshligi ortadi.

Mahsulot sifatining yaxshilanishi ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy ishlab chiqarish usullarining qo'llanilishi sifat standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi, bu esa kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Jadvalda keltirilganidek, innovatsion mahsulotlar ulushining ortib borishi eksport hajmining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar kichik biznesda innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini cheklamoqda. Bundan tashqari, malakali kadrlar yetishmovchiligi va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish darajasining pastligi innovatsion jarayonlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsion infratuzilmaning rivojlanish bosqichida ekanligi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda texnoparklar, innovatsion markazlar va IT-parklarning tashkil etilishi ushbu yo'nalishda ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatsa-da, ularning hududlar kesimidagi qamrovi hali yetarli darajada emas.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesda innovatsion yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish, xususan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ushbu sohaning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligi aniqlandi. Xususan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, innovatsion faoliyatni rivojlantirish darajasi hali yetarli emas. Bu esa, asosan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatining pastligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, kichik biznesda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni kengaytirish – kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar hajmini oshirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.
2. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish – ishlab chiqarishda ERP tizimlari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarini keng joriy etish orqali samaradorlikni oshirish lozim.
3. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish – innovatsion texnologiyalarni o'zlashtira oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kuchaytirish muhim hisoblanadi.
4. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish – texnoparklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar faoliyatini kengaytirish orqali kichik biznes uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim.

5. Xorijiy tajribani joriy etish – rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali innovatsion rivojlanishni tezlashtirish mumkin.
6. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish – soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali kichik biznes faoliyatini rag‘batlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi PQ–3697-son Qarori “Iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz/docs/3723453>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 24-yanvar // Prezident.uz. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
4. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. – Harvard University Press, 1911.
5. Drucker P. *Innovation and Entrepreneurship*. – New York: Harper & Row, 1985
6. Christensen C. *The Innovator’s Dilemma*. – Harvard Business School Press, 1997.
7. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. – Free Press, 1990.
8. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – World Economic Forum, 2016.
9. G‘ulomov S.S. *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent, 2018.
10. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. *Kichik biznes va tadbirkorlik*. – Toshkent, 2020.